

## ABU ALI IBN SINONING ILMIY MEROSI

*Abduraximova Parvina**Termiz davlat universiteti Rus va qardosh tillar fakulteti**Tojik va sharq tillar kafedrasi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dunyo tan olgan buyuk tabib, faylasuf va alloma Abu Ali Ibn Sinoning hayoti, ijodi, yozgan asarlari va ilmiy faoliyati haqida soʻz boradi.

**Kalit soʻzlar:** Abu Ali Ibn Sino, tabib, ilmiy merosi, faylasuf, yozgan asarlari, olim

X-XI asrlarda Markaziy Osiyo hududida ilm-fan mashʼalasi porladi. Bu davrda nafaqat Markaziy Osiyo balki butun dunyo tan olgan buyuk daholar, allomalar, olimlar yetishib chiqdi. Ana shunday olimlardan biri “TABIBLAR SULTONI” deya eʼtirof etilgan buyuk alloma Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino inson koʻzi bilan koʻrib, aqliga sigʻdirolmaydigan koʻpgina ishlarni amalga oshirib, tabobat ilmida ulkan choʻqqilarni zabt etdi. Biz shunday buyuk bobomiz bilan faxrlanib ular qoldirgan ilmiy merosini oʻrganib va amalda ularni tatbiq qilish gar birimizning burchimizdir.

Shayx ur-ra'is, Hujjat ul-Haq, Sharaf-ul-mulk, Hokim ul-vazir unvonlari bilan ulugʻlangan Abu Ali ibn Abdulloh Husayn ibn Sino al-Buxoriy 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlogʻida dunyoga kelgan. Abu Ali ibn Sino 5 yoshidan 10 yoshigacha oʻqish va yozish bilan birga arab tilini ham oʻrganadi. Abu Ali ibn Sino 10 toshidayoq Qurʼoni Karimni boshdan oyoq yod oladi. Ibn Sino Buxoroda baqqollik qiladigan Mahmud massohdan<sup>1</sup> hind oʻlchovi va geometriyani oʻrgandi. Ismoil Zohid huzurida fiqh ilmi bilan birga hadis va tafsirni oʻrgangan. Sino 13 yoshidan matematika, mantiq, fiqh, falsafa ilmlari bilan shugʻullangan. U oʻzidan avval oʻtgan sharq mutafakkirlarining asarlarini chuqur oʻrganish bilan birga Aristotel, Yevklid, Ptolemey, Galen, Gippokrat, Pifagor, Parfiriylarning asarlarini ham qunt bilan oʻrgangan. Abu Ali ibn Sino tabobat bilan shugʻullanib odamlar orasida tanila boshlaydi. Buxoro amiri Nuh ibn Mansur kasal boʻlganida barcha tabiblar ojiz qoladilar, amirni Ibn Sino davolaydi<sup>2</sup>. Amirni davolagani tufayli Buxoro kutubxonasiga kirishga ruxsat oladi. Shu tariqa tibga oid kitoblarni mutolaa qilishga tushadi. 16-17 yoshlarida mashhur tabib sifatida tanila boshlaydi. Abu Ali ibn Sino falsafa, tibbiyot, astranomiya, zoologiya, botanika, geologiya, musiqa, psixologiya etika, logika, tilshunoslik, adabiyot kabi sohalarda asarlar yozgan. Ibn Sino 456 ta asar yozgan boʻlsa ham, ulardan 242 tasi bizgacha yetib kelgan. Sinoning 23 ta asari

<sup>1</sup> Yer oʻlchovchi

<sup>2</sup> Said Nafisiy. Puri Sino 73-bet

o'zining ona tili ya'ni tojik tilida yozilgan. Abu Ali ibn Sino o'zining ko'p asarlarini yor-u do'st, ahli ilm, fazl-u karam sohiblari iltimosiga ko'ra yozgan. "Hadiyat ar-ra'is" (Ar-ra'is – Ibn Sino hadyasi)-ni Somoniylar amiri Nuh ibn Mansurga atab yozgan, "Al-Majmu" ("To'plam")-ni do'sti Abul Hasan al-aruziyga atab yozgan, Abu Muhammad ash-Sheroziyga "Kitob al-mabda bal maod" (Narsalarning boshlanishi va asliga qaytishi haqida kitob), "Kitob al-arsod al-kulliya" (Umumiy kuzatish kitobi)-larini yozib bergan. Sadoqatli do'sti va shogirdi al-Juzjoniyning iltimosiga ko'ra "Al-muxtasar al-avsat fil mantiq" (o'rtacha qisqa mantiq), "Ash-Shifo"-ni yozgan. "Donishnoma"-ni Isfahon amiri Alouddavlaga yozib bergan.

Abu Ali ibn Sinoning tib ilmiga oid 30 dan ortiq asarlari bizgacha yetib kelgan va ular quyidagilardir: "Qonun", "Urjuza fit-tib" (Tibbiy urjuza), "Al-adviyat al-qalbiya" (yurak dorilari), "Daf al-madorr al-kulliya an al-abdon al-insoniya" (inson badaniga yetishgan barcha zararlarni yo'qotish), "Kitob al-qulanj" (qulanj haqida kitob), "Maqola fin nabz" (tomir urishi haqida maqola), "Risola fi hifz as-sihha" (sog'liqni saqlash haqida risola), "Risola fil fasd" (qon olish haqida risola) kabilardir. "TIB QONUNLARI" asosan besh kitobdan iborat bo'lib, Al-Juzjoniyy fikriga ko'ra, hajm jihatdan bu asar o'n to'rt jilddan iborat bo'lgan. <sup>3</sup> "KITOB AL-QONUN FIT-TIB" o'z zamonasida tabobat ilmlarining mufassil qomusi sifatida inson sog'ligi va kasalliklarga oid bo'lgan barcha muammolarni mantiqiy tartibda yo'la mujassam etgan. Sinoning "AL-QONUN" asarining qo'lyozma nusxasi hozirda Ozarbayjon fanlar akademiyasi qo'lyozmalar institutida saqlanib kelinmoqda.

O'zbek olimi U. Karimov o'zining maqolasida Ibn Sino asarlarini quyidagicha fanlarga bo'ladi:

1. FALSAFA, ILOHIYOT VA TASAVVUF-80 TA
2. TIBBIYOT -40 TA
3. MANTIQ-19 TA
4. PSIXOLOGIYA- 26 TA
5. TABIATSHUNOSLIK -23 TA
6. ASTRANOMIYA- 7 TA
7. MATEMATUKA-1 TA
8. MUSIQA- 1 TA
9. KIMYO- 2 TA
10. AXLOQ-ETIKA
11. ADABIYOT- 4 TA
12. OLIMLAR BILAN YOZISHMALAR<sup>5</sup>

<sup>3</sup> A. Zohidiy. Abu Ali Ibn Sino. Tabiblar sultoni. 67-bet

<sup>4</sup> Nurboev. F. Ibn Sino ta'limoti. 9-bet

<sup>5</sup> A. Zohidiy. Abu Ali Ibn Sino. Tabiblar sultoni. 66-bet

Abu Ali Ibn Sino olimligi va tabibliigi bilan birga shoir va yozuvchi ham edi. U adabiyot ilmiga bag'ishlab 4- ta asar yozgan va uning nasriy asarlari arab tilida yozilgan. "YUSUF QISSASI" Qur'on syujeti asosida yozilgan birinchi asar bo'lib, ramziy-majoziy usuldadir. "RISOLATV AT- TAYR " (Qush risolasi) ," HAYY IBNI YAQZON" kabi asarlari ham ramziy-majoziy usulda, "Salomon va Ibsol " ishqiyl sarguzasht asardir. Ibn Sino shoir sifatida she'riyatning barcha janrlarida ijod qilib, doston, qasida, g'azal, ruboi va fardlar yozgan. Sino "AL-MAJMUL" kitobida she'ritat, ritorika va boshqa fanlar haqida o'z fikrini bildiradi. Adabiyotshunoslikka oid "SHE'R SAN'ATI" degan asari ham bor. Allomaning bu asari "KITOB ASH-SHIFO"-ning bir qismi bo'lib kelgan. Ibn Sino she'r san'ati asarini sakkiz bobga ajratadi va she'rga quyidagicha ta'rif beradi:

"She'r bir xil mavzudagi so'zlardan tuzilgan xayoliy nutqdir; arablarda esa qofiyasi ham bor". Ibn Sinoning gaplariga binoan she'r oddiygina nutq bo'lmay balki obrazli nutqdir. She'rning kuch-qudrati o'quvchini shirin xayollar sari yetaklaydi va uning fikrlarini harakatga keltiradi. Shoirning forscha she'rlaridan ko'ra arab tilida yozgan she'rlari bizgacha ko'proq yetib kelgan. U shunday deydi:

Bo in du-se nodon,ki chunon medonand,  
Az jahl, ki donoi jahon eshonand.  
Xar bosh,ki in jamoa az farti xari,  
Har k-o' na xar ast, kofirash mexonand.

"Johilligi va axmoqligi bilan o'zini dono bilganlar suhbatida sen o'zingni eshshak deb hisobla, bo'lmasa eshshakligi haddan ortganda seni kofirga chiqarishadi". Ibn Sino zamonasining barcha ilmlarini qunt bilan o'rgangan va barcha masalalarni hal etgan.

Az qa'ri gili siyah to avji zuhal,  
Kardam hama mushkiloti getiro hal.  
Berun jastam zi qaydi har makru hiyal,  
Har band kushoda shud, magar bandi ajal.

"Qora tuproq qa'ridan to Zuhal cho'qqisigacha bo'lgan barcha masalalarni hal etdim. Har qanday makru hiylalardan qutila oldim, hamma tugunlar yechildi. Ammo o'lim tugunlarini yecha olmadim.". Abu Ali Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan tibbiy asarlari 30 dan ortiq bo'lib, shulardan asosiylari o'zbek tiliga tarjima qilinib nashr etilgan. Yevropada X11aslarda "KITOB AL-QONUN-FIT-TIB" lotin tiliga tarjima qilingan. Umuman olganda bu kitob 40 martadan ortiq nashr etilgan. Uning arabcha matni 1593 yildayoq Rimda nashr etilgan.

Keyinchalik “QONUN”-ning ayrim qismlari ingliz, nemis, va fransuz tillariga tarjima qilingan. Jahonning barcha kutubxonalarida Ibn Sino asarlarining qo’lyozmasi saqlanib kelinmoqda, shu jumladan, O’zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida allomaning qalamigamabsub 50 asarning 60 ta qo’lyozmasi mavjud.

Ibn Sinoning hayoti va ilmiy merosini o’rganishda ko’pgina sharqshunos olimlar o’zining hissasini qo’shgan. O’zbekistonda ham Sino asarlarini tarjima va tadqiq etishda S.Mirzayev, A. Murodov, A. Rasulov, U. Karimov, A. Semyonov, M. Sale, Y. Zavadovskiy, P.Bulgakov, SH. Shoislomov, E. Talabov, H. Hikmatullayevlar ulkan ishlarni amalga oshirgan. Yevropalik olimlardan Y. Bishmann, Y. Ruska Karra de Vo, X. Korbin, L. Garde J. Saliba hamda arab, turk va eron olimlari M. Najotiy, A. Nodir, Said Nafisiy, Yahyo Mahdaviy, Umar Farrux, F. Rahmon, M. Muso, H. G’araba va boshqalar Ibn Sino ijodini o’rganishga ma’lum hissa qo’shganlar.

Xulosa qilib aytganda Abu Ali Ibn Sino o’zidan o’lmas, tugamas, boy ilmiy me’ros qoldirgan. U nafaqat falsafa, mantiq, musiqa, adabiyotshunoslik balki tibbiyot sohasida ham o’zining ulkan hissasini qo’shgan. Hattoki bugungi kunda Sinoning yuksak zakovatiga tayangan holda ish ko’rmoqdalar. Ana shunday buyuk allomalarning zurriyoti ekanligimiz, bizning buyuk faxrimizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Abdulqodir Zohidiy. Abu Ali Ibn Sino. Tabiblar sultoni –Toshkent “Anorbooks”, 2023. – 160 b.
2. Nurboyev F. Ibn Sino ta’limoti – Toshkent “Tib kitob”, 2010. -160b.
3. Said Nafisiy. Puri Sino. Tehron, 1954.
4. Karimov U, Hikmatulloyev H. Abu Ali Ibn Sino" Tib qonunlari " Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent 1992.
5. X.Mirzozoda. Tojik adabiyoti tarixi .Dushanbe. Maorif 1989.